

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/31.01.2024.Tar.21.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**QODIROV ZIKRILLOXON MUSOXONOVICH**

**MARKAZIY VA G'ARBIY OSIYODA SALJUQIYLAR DAVLATI**  
**(MANBASHUNOSLIGI VA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI)**

**07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari**

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on Historical Sciences**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)  
по историческим наукам**

**Qodirov Zikrilloxon Musoxonovich**

Markaziy va G'arbiy Osiyoda Saljuqiylar davlati  
(manbashunosligi va davlat boshqaruv tizimi)..... 3

**Kodirov Zikrillokhon Musokhonovich**

The Seljuk State in Central and Western Asia  
(Source Studies and System of State Administration)..... 29

**Кадиров Зикриллохон Мусохонович**

Сельджукское государство в Центральной и Западной Азии  
(источниковедение и система государственного управления) ..... 57

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

List of published works  
Список опубликованных работ ..... 61

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/31.01.2024.Tar.21.03 RAQAMLI ILMY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**QODIROV ZIKRILLOXON MUSOXONOVICH**

**MARKAZIY VA G'ARBIY OSIYODA SALJUQIYLAR DAVLATI**  
**(MANBASHUNOSLIGI VA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI)**

**07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari**

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Tarix fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi **Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PHD/Tar46** raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezюме) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz)) hamda "ZiyoNET" axborot-ta'lim portaliga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Vohidov Shodmon Xuseynovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Doniyorov Alisher Xudoyberdiyevich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Djumaniyazova Feruza Djumanazarovna**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/31/01/2024/tar.21.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 22-noyabr soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent sh., Amir Temur Shoh ko'chasi, 20. Tel.: (99871) 235-45-21, faks: (99871) 233-52-24, E-mail: [info@tsuos.uz](mailto:info@tsuos.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (109-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Amir Temur Shoh ko'chasi, 20. Tel.: (99871) 235-45-21).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 10-noyabrda tarqatildi.

(2025-yil 10 noyabrda 20-raqamli reyestr bayonnomasi)



**M.M.Is'hoqov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
tarix fanlari doktori, professor

**N.R.Karimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotiби, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

**S.B.Shodmonova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari  
doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari ilm-fan insoniyat taraqqiyotining bosh omili ekanligini ko'rsatmoqda. Bu borada, jahon tarixshunosligida ham O'rta asr Sharq mamlakatlari tarixi va davlatchilik masalalarini o'rganishga alohida e'tibor berilib, ko'plab tadqiqotlar amalga oshirimoqda. Saljuqiylar bugungi Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron va Iroq, ayniqsa Turkiya hududlaridagi tarixiy jarayonlarda faol qatnashib, o'z davlatlari, siyosiy va harbiy uyushmalarini tashkil qildilar. Ularning mazkur hududlarda tashkil qilgan davlatlari XIII asrda mo'g'ullar bosqini ostida tarqaldi, hamda yangi davlat va tuzilmalar tarkibiga singib ketdi. Ularning vorislari keyinchalik G'arbiy Osiyoda o'z davrida muhim o'rin egallagan Usmonli turk davlatini tuzishda qatnashdilar. Markaziy va G'arbiy Osiyoda Saljuqiylar davlatining shakllanish tarixini, davlat boshqaruvi, unda bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o'rganish jahon tarixi, ayniqsa o'zbek davlatchiligi tarixining dolzarb va istiqbolli ilmiy yo'nalishlaridan birini tashkil qiladi.

Saljuqiylar tarixini o'rganish bo'yicha yaxlit bir qarash mavjud emas. Xususan, Saljuqiylar davlati chegaralari, ichki tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, harbiy boshqaruvi, aholining etnik tarkibi, ularning Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi siyosiy jarayonlarida tutgan o'rni va yana bir qator masalalar. Aynan Saljuqiylar sulolasi vakillarining faoliyati bilan bog'liq turli siyosiy voqealar va jarayonlar natijasida Markaziy va G'arbiy Osiyo mintaqasida bir qator tarixiy va etnomadaniy hodisalar, o'zgarishlar yuzaga kelgan. Markaziy Osiyo, jumladan bugungi O'zbekiston hududida paydo bo'lgan va rivojlanib borgan, turli siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni bosib o'tgan barcha davlatlarning haqqoniy vorisidir. O'zbek xalqi shunday ulkan merosni yuzaga kelishi hamda taraqqiy etishida faol qatnashib, insoniyat tarixi va madaniyatiga katta hissa qo'shgan. Bu davrda ajdodlarimizning davlatchilik tarixi, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissalar insoniyat tarixining uyg'onish davrini tashkil qiladi.

Mustaqillik yillarida barcha fanlarni puxta o'zlashtirish, xususan, tarix fanini chuqur o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Ilm-fanni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" alohida qayd etilgan bo'lib, 4.4-bandida yozma manbalarni o'rganish va tadqiq etish borasida hozirgi zamon ilm-fani oidda turgan muhim vazifalar belgilab berildi<sup>1</sup>. Zero, "Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma'rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki bo'lib, bu bebaho boylik yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir"<sup>2</sup>. O'zbek davlatchilik tarixida Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida turli davrlarda mavjud bo'lgan

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistonda Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Xalq so'zi. – 2017. – 24-iyun.

davlatlar, ularda kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar ma'lum darajada iz qoldirdi. O'tmish tarixning ajralmas qismi bo'lgan o'zbek xalqining davlatchilik tarixi ham turli siyosiy voqealar va hodisalarga boy bo'lgan sahifalardan iborat. Shunday bo'y, ilmiy va madaniy jihatlardan qiziqarli bo'lgan davr Saljuqiylar davri hisoblanadi. Biroq shunday bo'lsa-da, Saljuqiylar tomonidan asos solingan davlatlar tarixi O'zbekiston tarixi fanida eng kam o'rganilgan davr va bosqich sanaladi. Shu jihatdan Saljuqiylar davri tarixiga oid yozma manbalar va ilmiy adabiyotlarni atroflicha o'rganib, tadqiq etish o'zbek davlatchiligi tarixining kemtik joylarini to'ldirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2016-yil 18-iyundagi PQ-2562-son "O'zbekiston tarixi sohasidagi tadqiqotlarni tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son<sup>3</sup> "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-iyundagi PQ-3074-son<sup>4</sup> "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazini tashkil etish to'g'risida", 2020-yil 16-apreldagi "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>5</sup> PQ-4680-sonli qarorlari va hukumatning boshqa qaror hamda farmoyishlarida belgilangan ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish, o'zbek xalqining boy tarixini ilmiy o'rganish, ularni keng targ'ib qilish, millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni keng targ'ib qilish kabi vazifalarni bajarishda ushbu tadqiqot ma'lum darajada ko'maklashadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" dasturining ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mazkur mavzu Saljuqiylarning tarix sahnasida paydo bo'lgan davridan boshlab manbalar va turli asarlarda yoritib kekinmoqda. Arab, fors va turk tillarida keng ko'lamlı asarlar qatlami yuzaga kelganki, ular Markaziy va G'arbiy Osiyodagi Saljuqiylar tarixini o'rganishda yaqindan yordam beradi. Bular orasida Sadridin al-Husayniyning Axbor ad-davlat as-saljuqiyya ("Saljuqiylar davlati haqida xabarlar"), Ibn al-Asimning al-Komil fi-t-tarix ("Mufassal tarix"), Muhammad as-Sam'oniyning Kitob al-ansob ("Nasabnoma"), Nizomulmulknning Siyosatnoma, Mirxondning Rovzat as-safo ("Musaffoiik bog'i"), Imodiddin Isfahoniyning Nusrat al-fatra va ustrat al-fitra, Rovandiyning Rohat as-sudur va oyat as-surur ("Qalbning orom olishi va quvonch mo'jizasi"), Muhammad al-Koshoniyning Fatarot fi zamoni-l-vuzaro va vuzaro fi zamoni-l-fatarot (Vazirlar

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 21-son, 389-modda.

<sup>4</sup> "Xalq so'zi", 2017-yil, 122 (6816)-son.

<sup>5</sup> <https://lex.uz/docs/4791086>.

zamonida fatarot va fatarot davridagi vazirlar), Yoqut Hamaviyning Mo'jam al-buldon ("Mamlakatlar qomusi"), ibn al-Bibi al-Munajjimning Tarixi Ibn Bibi ("Ibn Bibi tarixi"), Jamol Qarshiyning Mulhaqot bi-s-suroh ("Suroh lug'atiga ilova") va boshqa asarlarni tilga olish mumkin. Mazkur asarlarning aksariyati O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi, bir qismi tarjima qilinib chop etilgan.

Yuqorida tilga olingan arab, fors va turkiy tillardagi manbalarning ma'lumotlari tanlangan mavzu doirasida qisman o'rganilgan. Ularning ko'p ma'lumotlari alohida muammolar bo'yicha ayrim joylari olingan bo'lib, manbalar yaxlit bir umumiy tarzda o'rganilmagan. Saljuqiylar tarixiga oid axborotlari esa tarqoq tarzda turgani ayon bo'ldi. Ushbu ilmiy adabiyotlar va manbalarni muammoviy-xronologik mezon va tillarga ko'ra guruhlash orqali tizimli tahlil qilish dissertatsiya natijalarining konseptual asoslarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda, tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlarni quyidagi uch guruh (tilar kesimida – o'zbek, rus, xorijiy tillar) ga ajratish maqsadga muvofiq. Ushbu tasnif dissertatsiya mavzusining ilmiy asoslarini chuqurlashtirish, mavjud ilmiy merosni tanqidiy tahlil qilish va mavzuga doir ilg'or nazariy yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi.

Birinchi guruhga mansub o'zbek tilidagi tadqiqotlar, asosan, Saljuqiylar davlati tarixini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita yorituvchi ilmiy izlanishlarni qamrab oladi. Bu ishlar O'rta asr Sharq tarixining umumiy jarayonlarini, ayniqsa XI–XII asrlardagi siyosiy harakatlar, sulolalararo munosabatlar, va davlatlar shakllanishini tahlil qilishga yo'naltirilgan. Jumladan, ayrim tadqiqotlarda Buyuk Saljuqiylar davlatining Movarounnahr, Xuroson va Eron hududlari bilan bog'liq yurishlari, hakamronlik strategiyalari haqida fikr yuritiladi. Hasan Ato Abushiy, Z.Buniyodov, Azamat Ziyo, K.Shoniyozov, A.Xo'jayev, R.Murtazayeva, A.Asqarov, Sh.Vohidov, Z.Jo'rayev<sup>6</sup> kabi tarixchilarning ishlari Saljuqiylarning Movarounnahr hududlariga ta'sirini yoritishda muhim nazariy asos yaratadi. Shuningdek, o'zbek sharqshunosligida tarixiy manba va solnomalarni tahlil qilish orqali Saljuqiylarga oid ma'lumotlarni aniqlash, ularni boshqa sulolalar bilan qiyosiy tahlil qilishga doir yondashuvlar shakllangan.

Ikkinchi guruhga mansub rus tilidagi tadqiqotlar Saljuqiylar davlati tarixiga doir fundamental ilmiy manbaviy tahlillarni o'z ichiga oladi. Bu tadqiqotlar asosan sobiq Sovet maktabi doirasida shakllangan sharqshunoslik va tarixiy manbashunoslik an'analari asosida olib borilgan bo'lib, Saljuqiylar sulolasining siyosiy geografiyasi, davlat boshqaruvi masalalarini yoritadi. Jumladan, A.E. Krimskiy, A.Yu. Yakubovskiy, B.N. Zaxoder, V.A. Gordlevskiy, A.D. Novichev, S.G. Agadjanov, D.E. Yeremeyev, S.A. Semenova, Yu.A. Petrosyan, G.M. Kurpalidis,

<sup>6</sup> Hasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi. – Toshkent: Chulpon, 1993. – 240 b.; Buniyodov Z. Anqunagan Horazmshohlar davlati. (1097-1231) / Aniraf Ahmad va Maxkam Maxmud tarjimasini. – Toshkent: F.Gulom nomidagi Adbiyot va san'at nashriyati, 1998. – 256 b.; Azamat Ziyo. Uzbek davlatchiligi tarixi: (Eng kladimig davrdan Rossia bosquniga qadar) // Mas'ul muharrir: B. Axmedov. – T.: «Sharq», 2001. – 368 b.; Shoniyozov K.Sh. Uzbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Sharq, 2001. – 462 b.; Xujashev A., Xujashev K. Qadimgi manbalarda xalqimiz ʻzminini. – Toshkent: Mavlaviyat, 2001. – 117 b.; Uzbekiston tarixi / Mas'ul muharrir P.X. Murgashev. – Toshkent: Universitet, 2004. – 452 b.; Asqarov A.A. Uzbek xalqining etnogenezini va etnik tarixini. – Toshkent: Universitet, 2007. – B. 339.; Vohidov Sh., Qodirov A. Sharqning mashhur sulolalari. – Toshkent: Akademnasir, 2013. – 620 b.; Juraev Z. Movaradivning Sharq davlatchilik tahlilnisi (X–XI asrlar). – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi ʻzMK nashriyati. – 2015. – 310 b.

L.S. Vasilev, V.M. Zaporjets<sup>7</sup> kabi olimlarning ishlari Saljuqiylar tarixiga oid arab va fors manbalarini tarjima, tahlil va ilmiy sharhlash asosida Saljuqiylar davridagi siyosiy voqelikni qayta tiklashga xizmat qiladi. Shuningdek, rus tilidagi tadqiqotlarda Saljuqiylar davriga oid tarixiy jarayonlar boshqa sulolalar, jumladan Abbosiylar, G'aznaviylar va Qoraxoniylar kontekstida qiyosiy tahlil qilinadi. Bu esa dissertatsiya mavzusida ko'zda tutilgan Saljuqiylar davlati tarixining manbaviy asoslarini aniqlash, davlat boshqaruvi tizimining shakllanishi va evolyutsiyasini tahlil qilish kabi asosiy ilmiy muvohajirlarni to'laqonli yoritishga xizmat qiladi.

Uchinchi guruhga mansub tadqiqotlar Saljuqiylar davlati tarixini to'g'ridan-to'g'ri yoritishga bag'ishlangan arab, fors, turk va ingliz tillaridagi zamonaviy ilmiy tadqiqotlardan iborat bo'lib, ularning ko'pchiligi nufuzli xorijiy universitet va ilmiy markazlarda yaratilgan. Bu tadqiqotlarda, ayniqsa, Saljuqiylar davlati siyosiy tuzilmasi, markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi va sulton-xalifa munosabatlari chuqur yoritilgan. Jumladan, T. Rays, C.E. Bosworth, A. Sevim, T. Baykara, O. Turan, E. Merçil, M. Akdag<sup>8</sup>, I. Demirkent, M. Koymen, A. O'zaydin, C. Hillenbrand, A. Pekok<sup>8</sup>, Seyyed Javad Tabatabaei, Ali Rafiei Mehrabadi, Mahdi Masoumi, Mohammad Hossein Fazeli, Atiyya al-Qousi, Abdulbaqi Abdulmuhsin, Abdullab bin Nasir al-Yahya, Qasim Hassan al-Badrani, Hussein Jasim Ahmad, Umar al-Zubdani<sup>9</sup>

<sup>7</sup> Крымский А.Е. История Турции и его литературы. А Крымского. Т.1. / Труды по востоковедению издаваемые Лазаревским институтом Восточных языков. Вып. I. Т.1. / От возникновения до начала XVI. – Москва, 1916. – 279 с.; Якубовский А.Ю. Сельджуцкое движение и туркмены в XI в. // ИАН СССР. ООИ, 1937. № 4. – С. 921-946.; Захедер Б.Н. Хорасан и образование государства сельджуков / Вопросы истории, 1945, №5-6. – С.119-142.; Гордешевский В.А. Государство сельджуков Малой Азии. Избранные сочинения Т.1. – Москва, 1960. – С.259-548.; Новичев А.Д. Турция. Краткая история. – Москва: Наука, 1965. – 270 с.; Агаджанов С.Г. Сельджуки и Туркмены в XI-XII вв. Под ред. Чл.кор. АН ТССР А.А. Рослякова. – Ашхабад: Ёшлы, 1973. – 163 с.; Еремеев Д.Е. На стыке Азии и Европы: очерки о Турции и турках. – Москва: Наука, 1980. – С.238. Шу муаллиф. Проникновение торкских племен в Малую Азию. [Международный конгресс антропологов и этнографов. Москва, август 1964 г.] – Москва: Наука, 1964. – 10 с.; Семенов Л.А. Из истории средневековой Сирии. Сельджуцкий период. – Москва: Наука, 1990. – 246 с.; Петросян Ю.А. Османская империя: могущество и гибель. – М., 1990; Курпаллидис, Г. М. Государство Великих Сельджуков: официальные документы об административном управлении и в социально-экономических отношениях / Г. М. Курпаллидис. – М.: Наука. Гл. ред. вост. лит., 1992. – 143 с.; Васильев Л.С. История востока. Том 1-2. – М.: МГУ, 2003.; Заторжоец В.М. Сельджуки. – М., Воениздат, 2011. – 295 с.

<sup>8</sup> Rice, Tamara Talbot. The Seljuks in Asia Minor. – London: Thames and Hudson, 1961. Asarning rus tilidagi tarjimasidan foydalanildi. Qarang: Райс Тамара Т. Сельджуки. Кочевники – завоеватели Малой Азии / Пер. с англ. О.И. Миловой. – Москва: ЗАО Центрполиграф, 2004. – 238 с.; Bosworth C.E. Islamic Dynasties: A Chronological and Genealogical Handbook / Clifford E. Bosworth. – Edinburgh, 1981. – 264 p.; Sevim, A. Suriye ve Filistin Selçukluları tarihi / Ali Sevim. – Ankara, 1983. – 293 s.; Baykara T. Türkiye Selçukluları devrinde Konya / Tuncer Baykara. – Ankara, 1985. – 165 s.; Turan O. Selçuklular tarihi ve Türk-İslâm medeniyeti / Osman Turan. – İstanbul, 1993. – 445 s.; Merçil, E., Sevim, A. Selçuklu devletleri tarihi. Siyaset, teşkilat ve kültür / Erdoğan Merçil, Ali Sevim. – Ankara, 1995. – 599 s.; Akdag M. Türkiye'nin iktisadi ve içtimai tarihi / Mustafa Akdag. – Cilt I (1243-1453). İstanbul, 1995. – 432 s.; Demirkent I. Türkiye Selçuklu hükümdarı Sultan I. Kılıç Arslan / I Demirkent. – Ankara, 1996. – 96 s.; Köymen M.A. Büyük Selçuklu imparatorluğu tarihi. I. cilt. Kuruluş devri / M.A. Köymen. – Ankara, 2000. – 526 s.; Özaydin A. Sultan Berkıyark devri Selçuklu tarihi (485-498/1092-1104) / A. Özaydin. – İstanbul, 2001. – 272 s.; Merçil, E. Selçuklularda hükümdarlık alametleri / Erdoğan Merçil. – Ankara, 2007. – 283 s.; Hillenbrand Carole. Turkish Myth and Muslim Symbol. The Battle of Manzikert / Carole Hillenbrand. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2007. – 288 p.; Peacock A.C.S. The Great Seljuk Empire / A.C.S. Peacock. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2015. – 392 p.

<sup>9</sup> Tabataba'ī, Sayyid Jawād. Zawā' al-dīnīya shāhī dar Irān. – Tīhrān: Nashr Kavīr, 1380. – 410 s.; Rafī'ī Mīhrābādī, 'Alī. Tārīkh hukūmatī Saljūqiyyān-i buzurg. – Tīhrān: Intishārāt-i Dānīshgāh-i Tīhrān, 1390. – 472 s.; Ma'šūmī, Mahdī. Barrasi-yi tabīqī-yi nizām-i qaḍā'ī-yi Saljūqiyyān va Şāfiyyān. – Tīhrān: Nashr 'Ilm, 1393. – 260 s.; Fāḍilī, Muḥammad-Ḥusayn. Nihādihā-yi qudrat dar dawlat-i Saljūqiyyān-i Irān. – Tīhrān: Markaz-i Asnād va Muḥāla'āt-i Tārīkhī, 1400. – 298 s.; 'Atiyya, al-Qūsi. Tārīkh al-duwal al-mustaḥqila fi al-mashriq 'an al-khilāfa al-'Abbāsiyya. – al-Qāhira: Dār al-Ma'ārif, 1985. – 472 s.; al-Jubūrī, Sāliḥ Mahdī. al-Hayāt al-'ilmiyya fi al-'aṣr al-Saljūqī. – Baghdād: Dār al-Ḥurriyya li-l-ṭibā'a, 1995. – 287 s.; 'Abd al-Muhsin, 'Abd al-Bāqī. Taṭawwur nuzum al-idāra fi al-dawla al-islāmiyya ḥattā nihāyat al-'aṣr al-'Abbāsī. – al-Qūhira: Maktabat al-Khānāḥī, 1998. – 368 s.; Ahmad, Ḥusayn Jāsīm. al-Hayāt al-'ilmiyya fi al-'aṣr al-'Abbāsī al-thāni. – Baghdād: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 2005. – 312 s.; al-Zubdānī, 'Umar. al-Wazīr al-Saljūqī Nizām al-Mulk. – Bayrūt: Dār al-'Uṣmā', 2017. – 256 s.

kabi mualliflarning asarlari Saljuqiylar sulolasining siyosiy strategiyasi, din-davlat munosabatlari, harbiy tashkilot va madaniy-siyosiy merosiga oid qimmatli tahlillarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ushbu tillardagi zamonaviy dissertatsiyalar, maqolalar va ilmiy risolalarda tarixiy manbalarni tanqidiy o'rganish, qo'lyozma asoslaridagi tafsifiy izohlar va Saljuqiylar davrining mahalliy xususiyatlarini aniqlovchi tadqiqotlar mavjud. Bu guruhdagi ishlar dissertatsiyada Saljuqiylar davriga oid birlamchi va ikkilamchi manbalarni kompleks yondashuv asosida tahlil qilish imkonini yaratib, tadqiqotning manbashunoslik va qiyosiy tahliliga asos bo'lib xizmat qiladi. Mavzuga oid adabiyotlar va ishlarning to'liq ro'yxati tadqiqotning bibliografiyasida berilgan.

Ta'kidlash lozimki, Saljuqiylar tarixi, ular ishtirokidagi etnosiyosiy va etnomadaniy jarayonlar, ularning X – XIII asrlardagi Markaziy va G'arbiy Osiyo tarixida tutgan o'rni yagona bir jarayon va uning oqibati sifatida baholanmagan. Har bir hududdagi Saljuqiylar harakati bilan bog'liq voqea va hodisalarni, madaniy va ma'naviy o'zgarishlarni turkiy xalqlarning yagona bir jarayoni natijasi sifatida o'rganib baho berish lozim bo'ladi. Bundan tashqari eng yangi davrda Saljuqiylar davlati o'zbek xalqi davlatchiligi tarixida alohida bir bosqich sifatida talqin qilinishi ham yangicha ilmiy munosabatdir.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Xorijiy Sharq mamlakatlari tarixi va tarixiy manbashunosligi masalalari" mavzusidagi ustuvor ilmiy tadqiqot yo'nalishiga mos keladi hamda A-1-191 "Xorijiy tillardagi tarixiy asarlarning ilmiy tadqiqi va tanqidiy tahlili asosida Sharq mamlakatlari tarixiga oid zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish" (2015-2017-yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida hamda O'zRFA Tarix institutining OT A1 – 128 "VII – XIX asr birinchi yarmi o'zbek davlatchiligi tizimida dargoh va devonlar faoliyati tarixidan" mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** X – XIII asrlarda Markaziy va G'arbiy Osiyodagi Saljuqiylar davlati tarixi va davlat boshqaruv tizimiga oid manbalarning ilmiy tahlili orqali davr tarixini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Saljuqiylar tarixini o'rganishga doir arab va fors tilidagi asosiy yozma manbalarni o'rganish va tahlil qilish;

Saljuqiylar tarixini o'rganishga doir vizantiya, arman va boshqa nomusulmon manbalarni tavsiflash;

Saljuqiylar davlati tarixiga oid yo'qolgan manbalarni o'rganish va tahlil qilish;

Buyuk Saljuqiylar davlatining tashkil topishi va rivojlanishi masalasini ochib berish;

Saljuqiylar davlatining davlat boshqaruv tizimini o'rganish va tahlil qilish;

Saljuqiylar davlatida qo'shin va harb ishi masalasini o'rganish va manbalar asosida ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida XI-XIII asrlarda Markaziy va G'arbiy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan Saljuqiylar davlati olindi.

**Tadqiqotning predmetini** XI-XIII asrlarda Markaziy va G'arbiy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan Saljuqiylar davri tarixini o'rganishga oid manbalar tahlili hamda yo'qolgan manbalar tavsifi, Saljuqiylar davlatining tashkil topishi va davlat boshqaruv tizimi bilan bog'liq jarayonlar tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida xolislik va tarixiylik tamoyillari, qiyosiy va tizimli tahlil, muammoviy va kontent tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Saljuqiylar tarixi bilan bog'liq arab, fors, vizantiya, arman va boshqa nomusulmon manbalar tizimli hamda qiyosiy-manbashunoslik usulida o'rganilib, ilgari faqat bir yoki ikki tildagi manbalar asosida cheklangan holda yoritilgan tarixiy jarayonlar ko'p qirrali, sivilizatsion yondashuv asosida qayta ko'rib chiqilgani, turli muhitlarda vujudga kelgan manbalarni birinchi bor birgalikda qiyoslash orqali Saljuqiylar tarixi haqidagi tasavvurlarni yangi bosqichga ko'tarib, tarixni faqat islomiy yoki faqat g'arb nuqtai nazaridan emas, balki o'zaro ta'sir va manbalar o'rtasidagi muloqot madaniyati asosida o'rganish imkoni yaratilgan.

Buyuk va Turkiya (Rum) saljuqiylari tarixiga oid yo'qolgan yoki parchalanib saqlangan bir qator tarixiy manbalarning mazmun va funksiyalari funksional rekonstruksiya usuli orqali qayta tiklanib, Saljuqiylar davridagi siyosiy voqealar, sultonlik ma'muriyati, harbiy tizim va davlatchilik an'analari haqidagi ma'lumotlar manbalarning ichki logikasi va qiyosiy tahlili orqali ilmiy jihatdan qayta baholangan.

Saljuqiylar davlat boshqaruv tizimi turkiy davlatchilik an'analari va islomiy siyosiy-huquqiy meros uyg'unligida ilmiy-nazariy asosda o'rganilib, sulton hokimiyatining qonuniyligi, markaziy devonlar faoliyati va davlat ma'muriyatining tuzilishi manbashunoslik jihatdan qayta ko'rib chiqilgan va shu orqali turkiy va islomiy davlatchilik an'analari o'rtasidagi institusional va mafkuraviy bog'lanishlari, manbalarda Saljuqiy hukmdorlarining siyosiy qudrati faqat harbiy kuch emas, balki adolat, shariat va turkiy boshqaruv an'analari uyg'unligida qonuniy deb baholangani asoslab berilgan.

Saljuqiylar harbiy tizimi va "iqto instituti"ning davlat qurilishidagi roli ilmiy talqin qilinib, iqto tizimining harbiy-iqtisodiy funksiyalari qayta baholanib, uning davlat barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati, iqto tizimi nafaqat iqtisodiy manba, balki siyosiy loyallik va markazlashgan boshqaruvni mustahkamlash vositasi bo'lgani ilmiy asosda isbotlanib, Saljuqiylar harbiy tuzilmasi – xos qo'shinlari, g'ulomlar tizimi va sipohiyalar korpusi davlat qudratining asosiy ustuni sifatida namoyon bo'lgani va bu tizim islom dunyosida ilk bor turkiy an'analari asosida harbiy-ma'muriy professionallashuvni ta'minlagani bilan ahamiyatli ekanligi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Saljuqiylar davri tarixi hamda davlat boshqaruv tizimiga oid manbalar jamlanib tahlil qilindi va bizgacha yetib kelmagan manbalar aniqlanib tavsiflandi;

XI–XIII asrlarda Markaziy va G'arbiy Osiyoda Saljuqiylar davlati tarixiga oid arab, fors, turk, rus va boshqa tillardagi manbalar, mavzuga oid dissertatsiya tadqiqotlari, ilmiy adabiyotlar, davriy nashrlarda e'lon qilingan maqolalar, ma'ruza tezislari hamda boshqa materiallar jamlanib, manbashunoslik va tarixshunoslik

nuqtayi nazaridan ochib berildi, ular asosida “Buyuk tarix yaratgan sulola: Saljuqiylar Markaziy va Gʻarbiy Osiyoda (tarixiga oid manbalari va davlatchilik masalalari)” nomli monografiya tayyorlanib, ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi;

Saljuqiylar davlatchilik tarixi va ular tarixiga oid birlamchi manbalarning oʻrganilishi va ular tasnifining taqdim etilishi bu borada yana koʻplab vazifalar boʻyicha keng koʻlamli tadqiqotlar olib borish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;

Tadqiqotda keltirilgan mulohazalar, taklif va tavsiyalar milliy davlatchilik tizimini takomillashtirish, maʼnaviy-axloqiy immunitetni shakllantirishda qoʻl keladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** dissertatsiya manbashunoslik va tarixshunoslik tadqiqotlarining metodologiyasi va usullari asosida bajarilganligi, sohaga oid koʻp turdagi manbalar va tarixiy adabiyotlar hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar vakillarining tadqiqotlaridan foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning tegishli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan taʼminlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Saljuqiylar davri tarixi va davlatchilik anʼanalarini tarixiylik, xolislik, tizimlilik prinsiplari hamda fanlararo yondashuvlar, xususan, tarix va siyosatshunoslik fanlari metodlari asosida yoritilishi mazkur muammoga oid metodologik yondashuvlar va nazariy xulosalarni takomillashtirishga imkon berishida koʻrinadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati ushbu tadqiqotda yoritilgan masalalar, chiqarilgan xulosalar va tavsiyalardan zamonaviy Oʻzbekiston davlatchiligi tarixining ayrim masalalarini oʻrganishda hamda oʻrta asrlar davridagi Markaziy va Gʻarbiy Osiyoning siyosiy, ijtimoiy va madaniy tarixiga oid bilimlarni kengaytirishga qaratilgan. Qolaversa, tadqiqot natijalarini Oʻzbekistonning oʻrta asrlar tarixi boʻyicha umumiy asarlar yaratish, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi oliy oʻquv yurtlarida gumanitar yoʻnalishda, xususan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabalari uchun “Turkiya tarixi”, “Turkiya tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi”, “Markaziy Osiyo xalqalari tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi” fanlari doirasida oʻquv adabiyotlarini yaratish hamda maxsus kurslar oʻqishda qoʻllash mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “Markaziy va Gʻarbiy Osiyoda Saljuqiylar davlati (manbashunosligi va davlat boshqaruv tizimi)” mavzusidagi tadqiqot natijalari, mavzu doirasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

“Markaziy va Gʻarbiy Osiyoda Saljuqiylar davlati (manbashunosligi va davlat boshqaruv tizimi)” mavzusiga oid manbalar va adabiyotlarni oʻrganish hamda tahlil qilish natijasida olingan xulosa va ilmiy natijalari hamda yangi faktlarga asoslangan ilmiy materiallaridan “Oʻzbekiston tarixi” telekanali orqali efirga uzatilgan “Ochiq dars”, “Taqdimot” va “Tarixiy savol” ilmiy-maʼrifiy koʻrsatuvlarini tayyorlashda manba sifatida foydalanilgan (Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2019-yil 13-dekabrda 02-40-2640-son, 2020-yil 10-yanvardagi 02-40-91-son va 2021-yil 24-sentyabrda 4040-15-04-son maʼlumotnomalari). Natijada teletomoshabinlarga Saljuqiylar davri haqida

manbalarga asoslangan aniq ma'lumotlar olish hamda ko'rsatuvlarning ilmiy saviyasi oshishiga xizmat qilgan.

"Markaziy va G'arbiy Osiyoda Saljuqiylar davlati (manbashunosligi va davlat boshqaruv tizimi)" mavzusida yozilgan dissertatsiyasi ilmiy natijalaridan Tarix institutida 2017 – 2019 yillarda bajarilgan OT A1 – 128 "VII – XIX asr birinchi yarmi o'zbek davlatchiligi tizimida dargoh va devonlar faoliyati tarixidan" amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan. Xususan, - Saljuqiylar asos solgan davlatlarning davlat boshqaruv tizimi, amaldagi unvon va mansablar, saljuqiylarning ma'muriy boshqaruv an'analari o'ziga xos jihatlari, qo'shni va merosxo'r davlatlarga ta'siri ko'rsatib berilgan hamda manbalar asosida dalillangan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 18-iyuldagi 3/1255-1781-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Saljuqiylar davlat boshqaruv tizimida asosiy mansablar va devonlar haqidagi ma'lumotlarga aniqlik kiritilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 1 monografiya, 17 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 5 ta xalqaro va 12 ta respublika miqyosidagi konferensiyada aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola (ulardan, 9 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 139 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Saljuqiylar davlati tarixiga oid manbalar tavsifi va adabiyotlar tahlili**"ga bag'ishlangan. Ushbu bobda manbalar ikki guruhga bo'lib o'rganildi. Birinchi guruh asosan arab va fors tilidagi manbalardan iborat. Ularning ichida bevosita Saljuqiylar davlati tarixining o'ziga bag'ishlab yozilgan, yoki boshqa hududlar tarixini yoritish doirasida Saljuqiylar davlatida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning u yoki bu jihatlari yoritishga keng o'rin ajratilgan. Ko'p hollarda Saljuqiylar davlati tarixini ochib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan ayrim manbalarda Saljuqiylar davlati tarixiga aloqador juda katta qimmatga ega, original ma'lumotlar uchraydi. Bu haqida ishning birinchi bob birinchi paragrafidagi to'liq ma'lumot berilgan.

Ikkinchi guruh manbalari esa asosan vizantiya, arman va boshqa tillardagi manbalardan iborat bo'lib, ulardagi ma'lumotlar asosida birinchi guruhdagi manbalar

keltirgan ma'lumotlar solishtirildi. Bu haqida ishning birinchi bob ikkinchi paragrafida to'liq ma'lumot berilgan.

**“Saljuqiylar tarixini o'rganishga doir arab va fors tilidagi asosiy yozma manbalar tahlili”** deb nomlangan birinchi paragrafda taqdim etilayotgan dissertatsiya ishining manbaviy asosini tashkil etuvchi Saljuqiylar davlati tarixiga oid siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar bo'yicha ma'lumot beradigan asosan arab va fors tilidagi birinchi guruh manbalari tavsifi berilib, tahlil qilingan.

Birinchi guruh manbalariga bevosita Saljuqiylar davlati tarixiga bag'ishlangan yoki Saljuqiylar davlati tarixini yoritishga o'zida juda keng o'rin ajratilgan ishlarni kiritish mumkin. Birinchi guruh manbalari qatoridan Saljuqiylar davlati tarixiga bevosita aloqador bo'lgan Sadridin al-Husayniyning Axbor ad-davlat as-saljuqiyya (“Saljuqiylar davlati haqida xabarlar”), Ibn al-Asir al-Jazariyning al-Komil fi-t-tarix (“Mufasssal tarix”), Muhammad as-Sam'oniyning Kitob al-ansob (“Nasabnoma”), Nizomulmulukning Siyosatnoma (yoki Siyar al-muluk – “Podshohlar turmushi”), Imodiddin Isfahoniyning Nusrat al-fatra va ustrat al-fitra, Muhammad al-Bundariyning (Imodiddin Isfahoniyy asarining redaksiyasi) Zubdat an-nusra va nuhat al-usra (“Yordam”) kitobining qaymog'i va “Panoh” kitobidan saylanma), Rovandiyning Saljuqiylar tarixiga oid Rohat as-sudur va oyat as-surur (“Qalbning orom olishi va quvonch mo'jizasi”), Sib al-Javziyning Mir'ot az-zamon fiy tarix al-a'yon, Muhammad al-Koshoniyning fors tilidagi Fatarot fi zamoni-l-vuzaro va vuzaro fi zamoni-l-fatarot (Vazirlar zamonida fatarot va fatarot davridagi vazirlar), Yoqut Hamaviyning sakkiz jildlik Mo'jam al-buldon (“Mamlakatlar qomusi”), ibn al-Bibi al-Munajjimning Tarixi Ibn Bibi (“Ibn Bibi tarixi”), al-Avomiru-l-Aloiya fi-l-umuri-l-Aloiya yoki Saljuqnoma, Jamol Qarshiyning Mulhaqot bi-s-suroh (“Suroh lug'atiga ilova”), Kirmon saljuqiylari tarixiga oid eng muhim va birlamchi manbalardan biri Afzaliddin Abu Homid Kirmoniyning Saljuqiyoni dar Kirmon (“Kirmon saljuqiylari”) (aslida nomi Tarixi Afzal yoki Badoe' az-zamon fiy vaqoe' Kirmon), Tavorixi Oli Saljuq (“Saljuqiylar sulolasi tarixlari”) (bu asar aslida Ibn Bibi asarining turkcha tarjimai bo'lib, muallifi Yazijjo'g'li Ali) kabi asarlar o'rin olgan. Turklarning tarix sahanasida paydo bo'lishlaridan to Usmonli turklargacha bo'lgan davrni qamrab olgan bu asarlar ma'lumotlari asosida turklarni tarix sahanasiga chiqishlari, islom davridagi turklar tarixi, o'g'uzlar, ularning urf-odatlari, Saljuqiylar shajarasi, Anatoliya saljuqiylari, turklarning davlat boshqaruv tizimi, harb ishi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Saljuqiylar davlati tarixi – o'rta asr musulmon sharqining harbiy-siyosiy va madaniy rivojlanishida chuqur iz qoldirgan murakkab jarayonlardan biridir. Mazkur tarixni tadqiq etishda yozma manbalar, xususan arab va fors tilidagi tarixiy asarlar birlamchi va poydevoriy ahamiyat kasb etadi. Ushbu manbalar tafsilotlarining ko'pchiligi fragmentar va ba'zan subyektiv xarakterda bo'lishiga qaramay, ular Saljuqiylar davlati tuzulmasi, siyosiy-dinamik o'zgarishlari, madaniy taraqqiyoti hamda mintaqaviy farqlarni ochib berishda nodir ilmiy asosni tashkil etadi.

Yozma manbalar tematik va uslubiy yondashuviga qarab ikki asosiy guruhga ajratilgan: birinchisi – to'g'ridan-to'g'ri Saljuqiylar tarixiga bag'ishlangan musulmon mualliflar asarlari; ikkinchisi esa boshqa kontekstlarda bu davlatchilik haqida

ma'lumot beruvchi noisloimiy manbalar. Ushbu band doirasida, ayniqsa, birinchi guruh – arab va fors tillarida yaratilgan fundamental manbalar chuqur o'rganilgan.

Ular orasida Sadriddin al-Husayniyning "Axbor ad-davla as-saljuqiyya" asari alohida o'rin tutadi. Ushbu asar Saljuqiylar tarixining yakuniy bosqichlarini yoritib, ayniqsa Ozarbayjon va Ildigiziyalar sulolasiga oid jarayonlarga e'tibor qaratadi. Asarning yarim mustaqil bo'limlardan iboratligi, qisman boshqa mualliflar tomonidan to'ldirilgani (masalan, Imodiddin al-Isfahoniya bog'liq qismlar) uning manbashunoslikdagi tavsifini murakkablashtiradi, biroq bu holat tarixiy tafsilotlarning boyligini kamaytirmaydi. Shu bilan birga, al-Husayniyning "Zubdat at-tavorix" asari ham Saljuqiylar tarixi uchun bebaho bo'lib, uning ilmiy nashrlari (Iqbol, Zyussxeym, Lugal va Buniyatovlar tomonidan) tarixshunoslik doirasida keng tatbiq topgan.

Yana bir asosiy manba – Ibn al-Asirning sakkiz jildlik "al-Kamil fi-t-tarix" asaridir. Bu yilnoma asar Saljuqiylar tarixini, ayniqsa ularning Xorazmshohlar va Mo'g'ullar bilan bo'lgan murakkab munosabatlari doirasida yoritadi. Ibn al-Asir voqealarning tanqidiy bayoni, madaniy kontekstdagi yondashuvi va shaxslar haqida bergan tafsilotlari bilan boshqa mualliflardan ajralib turadi. Ayniqsa, 1230-1231-yillargacha bo'lgan davrni yoritishda uning asari asosiy manba sifatida baholanadi. Tarixiy voqealar guvohlaridan foydalanish usuli, qo'lyozmalarining keng tarqalganligi va rus tilidagi tarjimalari mazkur manbaning global ilm-fan uchun ham dolzarbligini ko'rsatadi.

Abu Sa'id as-Sam'oni tomonidan yozilgan "Kitob al-ansob" va Ibn al-Asirning unga asoslangan "al-Lubab" asari esa ijtimoiy tarix va shaxslar biografiyasini o'rganishda noyob manbadir. Saljuqiylar hukmdorlariga oid ma'lumotlar bu asarda biografik shaklda bayon etilgan bo'lib, ularning nasab va maqomlari, ilmiy va siyosiy salohiyatlari yoritiladi. Xuddi shunday, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari tilshunoslik manbasi bo'lishiga qaramay, Saljuqiylar davridagi turkiy qabila va toponimlarning joylashuvi, etnografik va madaniy xususiyatlari haqida muhim axborot beradi.

Forsiy manbalar orasida Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asari siyosiy-nazariy tafakkurning durdonasi sifatida alohida o'ringa ega. Vazirlik amaliyotidan kelib chiqqan bu risola orqali Saljuqiylar boshqaruv tizimi, vazir-sulton munosabatlari, davlatni idora etish etikasi va qonuniylik masalalari o'z ifodasini topgan. "Siyosatnoma"ning zamonasida ham amaliyotda qo'llanilishi, asarning saljuqiylar siyosiy modeli uchun qomusiy ahamiyat kasb etganini isbotlaydi.

Imodiddin al-Isfahoni, Najmiddin Rovandiy, Anushirvon ibn Xolid, Ibn Bibi, Afzaliddin Kirmoniy, Yoqut Hamaviy, Karimiddin Oqsaroyiy, Jamol Qarshiy kabi mualliflarning asarlari esa Saljuqiylar tarixining mintaqaviy (Iroq, Kirmon, Anatoliya, Xuroson) tafvutlarini yoritishda ustuvor ahamiyatga ega. Ular orqali faqat siyosiy emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va hatto sufiy-avliyo doirasidagi dinamikalarni ham ko'rish mumkin.

Masalan, Jamol Qarshiy asarida Qoraxoniylar va Saljuqiylar o'rtasidagi aloqalar, elchilik va iqtisodiy tizimi haqida noyob tafsilotlar mavjud. Ibn Bibi asarida esa Anatoliya saljuqiylarining mo'g'ullar bilan bo'lgan murakkab diplomatik munosabatlari, shajaraviy masalalar va devonlar faoliyati o'rganiladi. Ahmad

Aflokiy, Yazijio'g'li Ali, Sibt al-Javziy, Ibn Isfandiyor kabi mualliflar esa ko'pincha mahalliy voqealar fonida Saljuqiylar merosini yoritganlar.

Shu tariqa, birinchi guruhdagi yozma manbalar faqatgina voqealar bayonini emas, balki tarixiy tafakkur, davlat konsepsiyasi, siyosiy legitimlik, madaniy uyg'unish va turkiy-sharqiy uyg'unlikni anglashda manbashunoslikda yadro rolini bajaradi. Bu manbalarning har biri o'z ixtisoslashuvi, til xususiyati, uslubiyati bilan Saljuqiylar davlati haqidagi ilmiy tasavvurni boyitadi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi **"Saljuqiylar tarixini o'rganishga doir vizantiya, arman, xitoy va boshqa nomusulmon manbalar tavsifi"** deb nomlanadi. Saljuqiylar davlati tarixi nafaqat islomiy manbalar orqali, balki vizantiya, arman, suryoniy va xitoy manbalari orqali ham yoritiladi. Ushbu manbalar o'z tabiatiga ko'ra Saljuqiylar tarixining ichki emas, tashqi – ya'ni bu sulola bilan to'qnashgan yoki diplomatik-siyosiy munosabatlarda bo'lgan boshqa sivilizatsiyalarning qarashlari, kuzatishlari va reaksiyalarini ifodalaydi. Bu manbalar muhim bo'lishining sababi shundaki, ular Saljuqiylar faoliyatini musulmon olami tashqarisidan, ba'zan qarama-qarshi nuqtai nazardan tasvirlaydi. Aynan shuning uchun ham ularning mazmuni qiyosiy manbashunoslik yondashuvi uchun boy imkoniyat yaratadi. Bu manbalarda asosan Saljuqiylar tarixiga oid ayrim voqealar, asarlar yozilgan hududlar yoki ularning hukmdorlari mafkurasiga mos tarzda yoritilgan. Tadqiqotda ushbu manbalarning e'lon qilingan tarjimalaridan qisman foydalanildi va bu bilan arab-fors manbalaridan keltirilgan ayrim ma'lumotlar qiyosiy metod vositasida tahlil qilindi. Ikkinchi guruh manbalaridan quyidagilar tadqiqotga jalb qilindi.

Vizantiya manbalari: Mixail Psellning *Khronographia* ("Xronografiya") asari, u bu asarni 1076-1077-yy. orasida yozgan. Muallif bu asarda Saljuqiylar tarafidan Anatoliyaning fath etilishi, Vizantiyaning ichki va tashqi siyosati, imperator saroyidagi vaziyatni yoritadi<sup>10</sup>. Anna Komninning *The Alexiad* (grek. Αλεξιάς, Aleksias - "Aleksiada") asari. "Aleksiada" asarida Aleksey Komninning imperatorlik davri yoritiladi. Imperator saroyidagi voqealar doirasida Turkiya Saljuqiylari davri ham unumli bayon qilingan<sup>11</sup>. Ioann Kinnamning *Istoria* ("Tarix") nomli asarida 1118-1176-yy. orasidagi voqealar bayon qilinadi. Vizantiya imperatori Ioann II va Manuil Komninlar davrini qamrab olgan asar, Sulton Mas'ud I (1116-1155) va Qilich Arslon II (1155-1192) davridagi Vizantiya va Saljuqiylar munosabatlari, ikkinchi salib yurishi va turkmanlar haqida qimmatli ma'lumot beradigan manbadir<sup>12</sup>.

Arman manbalari: Aristakning *Istoria*<sup>13</sup> ("Tarix"), Urfali Mateosning "Voqeanomasi" (bu asarga Papaz Grigor Zayl – ("Ilova") yozib voqealar bayonini 1162-y. qadar beradi<sup>14</sup>), Kirakos Gandzaketsining *Historia of the Armenians* ("Armaniston tarixi"), Lambron seniori Konstantinning o'g'li bo'lgan Smbatning *Chronicle* ("Voqeanoma")<sup>15</sup> nomli asarlari. Bu asarlarda Chag'ribekning Anatoliyaga

<sup>10</sup> Карацц: Psellos Mikhaïl. *Khronographia*. Haz. Işın Demirkent. TÜRK Yay. – Ankara, 1992.

<sup>11</sup> Анна Комнина. *Alexiad* / Çev. Bilge Umar. – İstanbul, 1996.; Комнина, Анна. *Алексиада*. Вступительная статья, перевод, комментарий Я.Н. Любарского. – М., 1965.

<sup>12</sup> Ioann Kinnamos. *Historia* (1118-1176). Haz. Işın Demirkent. NNK Yay. – Ankara, 2001.

<sup>13</sup> Aristakes. *Historia*. / trans. Robert Bedrosian. – New York, 1985.

<sup>14</sup> Urfali Mateos *Vekayi-namesi* (952-1136) va Papaz Grigor'un *Zeyli* (1136-1162). / Türkçe terc. Hrant Andreassyan. Notlar: Edourd Dulaurer-Halil Yinanç. NNK Yay. – Ankara, 2000.

<sup>15</sup> Smbat Chronicle. / Trans. Robert Bedrosian. Long Branch. – New York, 2005.

ilk yurishi, Malazgirt muhorabasi, Anatoliyaning turk yurtiga aylanishi, Turkiya saljuqiylari davlatining tashkil topishi, Xorazmshoh Jaloliddin Munkburni va Mo'g'ullarning Armaniston va boshqa mamlakatlarga qilgan xuruji, Turkiya saljuqiylari bilan Mo'g'ullar orasidagi munosabatlari, Turkiya Saljuqiylar davlatining Kilikiyadagi arman qirollari bilan munosabatlari keng yoritilgan.

Suryoniy manbalar<sup>16</sup>: Mixail/Mishel Suryoniyning Chronique<sup>17</sup> ("Voqeanoma")si. Odam davridan boshlab 1195-yilga qadar tarixni qamrab olgan bu manbadagi ma'lumotlar boshqa suryoniy va arab tilidagi asarlarda uchramaydi. Qilich Arslon II ni shaxsan ko'rgan va bilgan mazkur muallif shu sulton davrida sodir bo'lgan voqealar va turkmanlar harakatlari haqida ma'lumotlar bergan. Anonymous syriac chronicle "Anonim Suryoniyning voqeanomasi" nomli asar. Urfali Basil qaydlariga tayanib yozilgan mazkur manbada Birinchi va Ikkinchi Salib yurishlari bilan bog'liq voqealar tasvirlangan<sup>18</sup>. "Tarixi Abulfaraj" Abulfaraj ibn al-Ibriyning asari bo'lib, unda Odam yaratilishi davridan 1285-yilga qadar voqealar bayon qilinadi. Bu asaridan tashqari Abulfarajning o'z davridagi davlatlar tarixiga bag'ishlangan arab tilidagi "Tarixi muxtasari duval" asari ham mavjud. Uning mo'g'ullar davri va mo'g'ul hukmdorlariga bag'ishlangan to'qqizinchi bo'limi turk tilida chop etilgan<sup>19</sup>.

Gruzin manbalari: "Tarixi Gurjiston" nomli asar XVIII asrdagi Gruziya qiroli Vaxtang VI amri bilan yuzaga kelgan. Gruziya manbalarining tadqiqotchisi Mariya Felichet Brosse mazkur asarni "Gurjiston/Gruziya tarixi" nomi bilan fransuz tilida

<sup>16</sup> Segal J.B. Syriac Chronicles as source material for the history of Islamic peoples // *Historians of the Middle East* / ed. B. Lewis and P.M. Holt. - London, 1962. - P. 246-258.

<sup>17</sup> Chabot Jean-Baptiste / ed. & trans. Chronique de Michel le Syrien, Patriarche Jacobite d'Antioche (1166-1199), Vol. I (1899), II (1901), III (1905), and IV (Texte syriaque: 1910). - Paris: l'Academie des Inscriptions et Belles-Lettres.; Süryani Patrik Mihail'nin Vakayanamesi (1042-1195). II. Türkçe terc. Hrand D. Andreasyan. - Ankara, 1944.; Chabot Jean-Baptiste. La littérature historique des syriens // *Revue Historique*, Vol. 137 (1921). - P. 74-80.; Илья мыаушш. Un episode de l'histoire des croisades // *Melanges offerts a Gustave Schlumberger*, Vol. I. - Paris, 1924. - P. 169-179.; Duval Rubens. Chronique de Michel le Syrien // *Journal Asiatique*, Series X, Vol. IV (1904). - P. 177-84.; Shu muallif La Littérature syriaque. - Paris, 1907 (reprinted by Philo Press, Amsterdam, 1970); Gregorios, Mar Saliba Shamoun. The General Chronicle of Michael the Syrian Patriarch of Antioch, translated into Arabic, I-III. - Damascus, Sidawi, 1996.; Healey, John. "Michael I the Syrian." // *The Blackwell Dictionary of Eastern Christianity* / ed. Ken Parry et al. - Oxford: Blackwell, 1999, p. 317.; Morony Michael. Michael the Syrian as a Source for Economic History / *Hugoye* (<http://syrcom.cua.edu/Hugoye/>), Vol. 3, No. 2 (2000).

<sup>18</sup> Konaş Fazlı. Selçuklular Bibliografyası. Yüksek Lisans Tezi. - Kayseri, 2002.; Husseinov R. Les sources syriaques sur les croyances et les mœurs des Oghuz du VII<sup>e</sup> au XII<sup>e</sup> siècle // *Turcica*, Vol. 8 (1976). - P. 21-27.

<sup>19</sup> Kapam: Bedjan, Paul / ed. Gregorii Barhebraei Chronicon syriacum. - Paris: J.-P. Maisonneuve, 1890.; Budge, Ernest A. Wallis. The Chronography of Gregory Abu'l Faraj (1225 - 1286) the son of Aaron, the Hebrew Physician commonly known as Bar Hebraeus, being the part of his political history of the world. Translated from the Syriac. Volume I: English translation. Amsterdam, 1932.; Ebu'l-Ferec İbnü'l-İbri. Tarihi Mehtasari'd-Düval. Türkçe terc. Şerafiddin Yaktıaya. - İstanbul, 1941.; Abu'l Faraj, Gregory (Bar Hebraeus). Abu'l Faraj Tarihi. Cilt I. Suryancadan İngilizceye çeviren Ernest A. Wallis Budge. Türkçeye çeviren Omer Rıza Doğrul. - Ankara, 1945.; Abbeles, Jean-Baptiste and Thomas Joseph Lamy / ed. & trans. Gregorii Barhebraei Chronicon ecclesiasticum, Vol. I (1872), II (1874) and III (1877). - Leuven: Peeters and Paris: J.-P. Maisonneuve, 1872-1877.; Fiey, J.-M. Esquisse d'une bibliographie de Bar Hebraeus (+1286) // *PdO*, Vol. XIII (1986), 279-312.; Bualwan Hayat el-Eid. The Histories of Ibn al-'Ibri // *PdO*, Vol. XXVI (2001). - P. 145-158.; Conrad Lawrence I. On the Arabic Chronicle of Bar Hebraeus: His Aims and Audience // *PdO*, Vol. XIX (1994). - P. 320-378.; Fathi-Chelhad, Jean. L'origine du nom Bar 'Ebroyo: Une vieille histoire d'homonymes // *Hugoye* (<http://syrcom.cua.edu/Hugoye/>), Vol. 4, No. 1 (2001); Healey John. Barhebraeus // *The Blackwell Dictionary of Eastern Christianity* / ed. Ken Parry et al. - Oxford: Blackwell, 1999, p. 76.; Lane George. An Account of Gregory Bar Hebraeus Abu al-Faraj and His Relations with the Mongols of Persia // *Hugoye* (<http://syrcom.cua.edu/Hugoye/>), Vol. 2, No. 2 (1999); Murphy, F.X. "Bar-Hebraeus (Gregorius ibn al-Ibri)." // *New Catholic Encyclopedia*, Second Edition, Vol. 2. - P. 82-83. - Washington, DC: Catholic University of America, 2003.; Samir Khalil. Trois manuscrits de la chronique arabe de Bar Hebraeus a Istanbul // *Orientalia Christiana Periodica*, Vol. 48 (1980). - P. 142-144.

chop etgan. Unda XIII asrda Saljuqiy sultonlarni qirolicha Tamara va uning vorislari bilan olib borgan munosabatlari haqida ma'lumotlar mavjud. Asarning turkcha tarjimai Anqarada 2003-yili chop etilgan<sup>20</sup>.

Yuqorida tilga olingan keng ko'lamdagi manbalar vizantiya, arman va gruzin tillarida bo'lib, ularda o'rganilayotgan dissertatsiya mavzusiga aloqador masalalar yoki ayrim jihatlar yoritilgan.

Ikkinchi guruh manbalari – ya'ni noislomiy sivilizatsiyalar tomonidan yaratilgan yozma hujjatlar – Saljuqiylar tarixining manzarasini geografik va g'oyaviy jihatdan boyitadi. Shu bilan birga, ular orqali Saljuqiylar davrida shakllangan transmadaniy aloqalar, imperiyalararo diplomatiya va ijtimoiy dinamika chuqurroq tahlil qilinadi. Bundan tashqari, bu manbalar orqali tarixiy tafsilotlarni solishtirish va aniqlashtirish, xususan sanalar, shaxslar, hududlar, urushlar haqida obyektivroq manzara hosil qilish mumkin. Shuning uchun ham ularni Saljuqiylar tarixini o'rganishda mustahkam ikkilamchi emas, balki alternativ birlamchi manbalar sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Saljuqiylar tarixi manbalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki: Birinchi guruh (musulmon mualliflari) voqealarni ichki nuqtai nazardan, ko'pincha hukmdorlar siyosati asosida bayon etadi. Ikkinchi guruh (nomusulmon va qo'shimcha manbalar) Saljuqiylarni tashqi ta'sirlar, masalan, Vizantiya va Arman tarixchilari nuqtai nazaridan yoritadi. Bu manbalar yig'indisi davlatning siyosiy tuzilishi, iqtisodiy hayoti, madaniy taraqqiyoti va turkiy xalqlarning roli haqidagi asosiy tarixiy tasavvurni shakllantiradi. Manbashunoslik nuqtai nazaridan, ularning har biri yo'qolgan ma'lumotlarni to'ldirishda, voqealarni qayta tiklashda va tarixiy jarayonlarni xolis anglashda bebaho ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning **“Saljuqiylar davlati tarixiga oid yo'qolgan manbalar tavsifi”** nomli ikkinchi bobining birinchi paragrafi **“Buyuk Saljuqiylar davlati tarixiga oid yo'qolgan manbalar tavsifi”ga** bag'ishlangan.

Tarixiy jarayonga nazar tashlaganimizda, bizgacha yetib kelgan manbalar qatorida, ilgari davrlarda mavjud bo'lgani ma'lum bo'lgan, tarixning turli davrlari haqida ma'lumot beruvchi, biroq turli sabablarga ko'ra bugungi kungacha yetib kelmagan yoki yo'qolgan hamda hanuz oshkor etilishini kutayotgan asarlar ham juda ko'p. Tarixiy tadqiqotlarda, odatda, faqatgina bizgacha yetib kelgan manbalar ustida ishlar olib borilsa-da, yo'qolib ketgan manbalar haqida bunday ishlar kam uchraydi.

Buyuk Saljuqiylar davlatining tarixini o'rganishda tarixiy manbalarning roli nihoyatda katta. Tadqiqot jarayonida foydalaniladigan manbalar ikki asosiy guruhga bo'linadi: bizgacha yetib kelgan va turli sabablarga ko'ra yo'qolgan yoki bizgacha yetib kelmagan asarlar. Bu bo'limda Saljuqiylar davri tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, ammo turli tarixiy omillar sababli yo'qolgan manbalarning umumiy tavsifi keltiriladi.

Tarixiy voqealarni yoritishda mavjud manbalar qatorida bizgacha yetib kelmagan manbalarni ham hisobga olish juda muhimdir. Chunki tarixiy manbalar yo'qolishi jarayoni ko'plab tarixiy bilimlarning bizga yetib kelmasligiga olib keladi

<sup>20</sup> Maria Felicite Brosset. *Gurcistan Tarihi (Eski Çağlardan 1212 yilina kadar)*. Çev.Hrand D. Andreasyan.TTK. Yay. – Ankara, 2003.

va tarixni to'liq anglash imkoniyatlarini cheklaydi. Saljuqiylar davri tarixiy manbalar ko'pligi bilan ajralib turgan bo'lsa-da, mo'g'ul istilolari, Salib yurishlari va boshqa turli harbiy, siyosiy va tabiiy omillar sababli ko'plab qimmatli manbalar yo'qolgan yoki bizgacha yetib kelmagan.

Mazkur bandeda Saljuqiylar tarixiga oid yo'qolgan va qisman saqlangan asarlar haqida batafsil ma'lumot berilgan bo'lib, turli mualliflar va ularning tarixiy asarlari haqida so'z yuritilgan. Birinchi bo'lib Hilol ibn Muhsin as-Sa'biy va uning o'g'li G'arsunne'maning asarlari keltirilgan. Hilol ibn Muhsin "Tarix", "Tuhfatul-Umaro fi Tarixil-Vuzaro", "Kitobu Rusumi Doril-Xilofa" va "Kitobu Axbori Bag'dod" kabi asarlarni yozgan. Uning asarlari Saljuqiylar davriga oid qimmatli ma'lumotlarni saqlagan bo'lsa-da, afsuski, yo'qolgan yoki qisman saqlangan. Hilol ibn Muhsinning o'g'li G'arsunne'ma "Uyun ut-Tavorix" va "Kitob ur-Rabi'" kabi tarixiy asarlarni yaratgan. U o'z davrida guvohi bo'lgan voqealarni to'g'ridan-to'g'ri bayon qilgani bois, bu asarlar Saljuqiylar tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ammo, afsuski, bu asarlar ham to'liq holda bizgacha yetib kelmagan.

Keyingi mualliflar Munqiziy oilasiga mansub bo'lib, Shayzar mintaqasida amirlik qilgan bu oila a'zolaridan Ali ibn Murshid, Usoma ibn Murshid, Munqiz ibn Murshid va Murxif ibn Usoma Saljuqiylar haqida asarlar yozishgan. Bu asarlar ham saqlanmagan bo'lsa-da, Ibn al-Adim kabi keyingi tarixchilar tomonidan iqtiboslar orqali saqlanib qolgan<sup>21</sup>. Abu Tohir Xotuniy Muhammad Tapar davrida xizmat qilgan shoir va davlat arbobi bo'lib, "Tarixi Oli Saljuq" va "Shikornoma" nomli asarlar yozgan<sup>22</sup>. Bu asarlarda siyosiy tarix va madaniyat haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud bo'lib, yo'qolganligi katta yo'qotish hisoblanadi.

Anushirvon ibn Xolidning "Futuru zamonis-Sudur va Suduru zamonil-Futur" asari Sulton Malikshoh davridan To'g'rul ibn Muhammadning vafotigacha bo'lgan voqealarni qamrab olgan. Bu asar Imodiddin Isfahoniy tomonidan arab tiliga tarjima qilinib, keyinchalik Bunday tomonidan qisqartirilgan shaklda qayta yozilgan. Asarning asl nusxasi to'liq holda saqlanmagan. Muhammad ibn Ali al-Azimiy yozgan "al-Muvassal Ala-l-Asil-Mavsil" asari Saljuqiylar tarixi bo'yicha juda muhim bo'lgan, ammo bizgacha yetib kelmagan. Ibn al-Adim kabi tarixchilar tomonidan bu asardan ko'p iqtiboslar keltirilgan. Bayhaqiy (Ibn Funduq) tomonidan yozilgan "Tarixi Bayhaqiy" va "Mashoribu-t-tajorib" asarlari ham to'liq saqlanmagan bo'lib, ularning faqat ayrim qismlari mavjud. Bu asarlarda Saljuqiylar tarixiga oid ko'plab muhim ma'lumotlar mavjud bo'lgan.

Ibn al-Qiftiyning "Axbori-s-Saljuqiyya" asari ham yo'qolgan bo'lib, Saljuqiylarning Anatoliya hududlaridagi hukmronligi haqida qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olganligi ta'kidlangan<sup>23</sup>. Ali ibn Abul-Faraj al-Basriyning "Siyratul-Malik To'g'rul Bek as-Saljuqiy" asari ham Kotib Chalabiy tomonidan qayd etilgan, ammo bu asar bizgacha yetib kelmagan. Shuningdek, noma'lum muallifga tegishli "Maliknoma" asari haqida ma'lumot berilgan bo'lib, bu asarda Saljuqiylar

<sup>21</sup> Abdülkerim Özyayın, "Beni Münkiz", DİA, C.32, - İstanbul, 2006. - 15 s.; Sevim, "Münkiz Müelliflerinin Selçuklularla İlgili Kayıtları", Tarih Araştırmaları Dergisi, C.16, S.27, - Ankara, 1994. - 5 s.

<sup>22</sup> Ravendi, Râhâtü's-Sudûr ve Âyetü's-Sürûr, çev. Ahmet Ateş, 3. Baskı, TTK Yayınları, - Ankara, 2020. - 132-133 ss.; Mürsel Öztürk, "Ebu Tâhir-i Hâtûnî", DİA, C.10, - İstanbul, 1994. - 236 s.

<sup>23</sup> Şeşen, Müslümanlarda Tarih - Coğrafya Yazıcılığı, ss.142; Günaltay, İslam Tarihinin Kaynakları - Tarih ve Mînaverimler, ss. 179-182; Mahmut Kaya, "İbnü'l-Kâfî", DİA, C. 21, - İstanbul, 2000. - 112-114 ss.

Javlatining tashkil topishi haqida batafsil ma'lumotlar bo'lgan. Ushbu asardan Mirxond, Ibn al-Adim va Abu-l-Faraj Ibn al-Ibriy kabi tarixchilar foydalangan.

Ushbu tadqiqotimizda Saljuqiylar tarixi bilan bog'liq yo'qolgan, mazmuni haqida ma'lumotga ega bo'lganimiz va tahlil qilganimiz 10 dan ortiq tarixiy manba mavjud. Bundan tashqari, faqat nomi ma'lum bo'lib, mazmuni haqida hech qanday ma'lumot bo'lmagan manbalar ham bor. Turli tillarda va turli davrlarda yozilgan bu asarlar Saljuqiylar tarixining turli davrlarini yoritib bergan. Biroq, ularning mazmunidan asosan boshqa manbalardagi iqtiboslar orqali xabardor bo'lsak-da, bu ma'lumotlarning qanchasi bizgacha yetib kelgani va iqtibos vaqtida qanday olingani aniq emas. Bu esa manbalarga tanqidiy yondashish zarurligini ko'rsatadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Turkiya Saljuqiylari tarixi bilan bog'liq yo'qolgan manbalar tavsifi”** deb nomlangan.

O'rta asr Islom olamida yozilgan asarlar va tashkil etilgan kutubxonalar buyuk bir sivilizatsiyaning shakllanishiga zamin yaratdi. Saljuqiylar davrida ham turli sohalarda ko'plab asarlar yaratilgan. Bu asarlarning ba'zilar bugungi kungacha yetib kelgan bo'lsa, ayrimlari turli sabablarga ko'ra bizgacha yetib kelmagan.

Bizning kunlarimizgacha yetib kelmagan manbalarning muhim qismini Saljuqiylar tarixiga oid manbalar tashkil etadi. Bugungi kunda mavjud bo'lgan tarixiy manbalarda Saljuqiylar davri mualliflari foydalangan manbalardan iqtibos keltirilgani — bizga yetib kelmagan manbalar haqida ma'lumot olishimiz va ularning mazmuni to'g'risida tasavvur hosil qilishimizga imkon bermoqda.

Ushbu bo'limda asosiy manbalar orqali berilgan ma'lumotlar va Turkiya Saljuqiylari tarixi manbalari ustida olib borilgan izlanishlar asosida Saljuqiylar tarixiga oid yo'qolgan manbalarni adabiy meros sifatida taqdim etish maqsad qilingan. Turkiya Saljuqiylari davrida yozilgan, Saljuqiylar tarixi haqida ma'lumot beruvchi, ammo turli sabablarga ko'ra bizgacha yetib kelmagan asarlar aniqlanib, ularning mazmunlari bilan birga taqdim etilgan.

Turkiya Saljuqiylari tarixi bo'yicha bizgacha yetib kelmagan asosiy manbalar sifatida Muhammad ibn G'oziy al-Malatyaviyning “Murshid u'l-Kuttab”, Amir Ahmad Koni'iy Tusiyning “Saljuqnoma”, Hoja Dehhoniyning “Saljuqnoma”, Nig'dalilik Qozi Ahmadning “Saljuqnoma”, Yorjoniyning “Qaramon Shohnomasi” kabi asarlarni ko'rsatishimiz mumkin.

Nig'dalilik Qozi Ahmadning (vaf. 1334) “al-Valad ush-Shafiq va-l-Hofiz ul-Xoliq” nomli asarida Turkiya Saljuqiylarining siyosiy tarixi hamda muallif guvoh bo'lgan voqealar batafsil bayon etilgan. Qozi Ahmadning yo'qolgan “Saljuqnoma”si esa ayniqsa davlatning parchalanish davriga oid muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi mumkin. Yo'qolgan manbalar orasida Muhammad ibn G'oziy al-Malatyaviyning “Murshid u'l-Kuttab” asari mavjud bo'lib, unda davlat xizmati bilan bog'liq hujjatlar va yozuvlar namunasi keltirilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Bu asarning yo'qolishi Turkiya Saljuqiylarining insho san'ati va davlat boshqaruvi tarixi uchun katta yo'qotishdir.

Amir Ahmad Koni'iy Tusiyning o'ttiz jildlik “Saljuqnoma” asari Turkiya Saljuqiylari tarixini batafsil yoritgan, ammo bu asar bugungi kungacha yetib kelmagan. Ibn Bibining yuqorida zikr etilgan asari ushbu yo'qolgan asarning qisqartirilgan shakli bo'lishi mumkin degan taxminlar mavjud. Hoja Dehhoniyning

yigirma ming baytdan iborat "Saljuqnoma"si ham muhim yo'qolgan manbalardan biridir. Bu asarda Saljuqiylar sulolasi tarixi batafsil yoritilgan bo'lib, ayniqsa davlatning parchalanish davriga oid muhim ma'lumotlar mavjud bo'lgan bo'lishi mumkin. Yorjoniyning "Qaramon Shohnomasi" ham bevosita saqlanmagan, ammo undan XVI asr muallifi Shikoriy foydalanib "Qaramonnomani" yozgan. Shikoriy orqali bu asardan xabardor bo'lamiz.

Arman manbalari orasida Vardapet Sargavak Hovannes, Anilik Mixitar va Vardapet Vanagan kabi mualliflarning asarlari mavjud bo'lib, ular Saljuqiylar va Mo'g'ul istilolari haqida muhim tarixiy ma'lumotlarni taqdim etgan. Bu asarlar bugungi kungacha yetib kelmagan bo'lib, ular yo'qoigan manbalardan biri sifatida Saljuqiylar tarixiga oid bilimlarimizdagi bo'shliqni aks ettiradi.

Shu asosda, Turkiya Saljuqiylari tarixiga aloqador bo'lgan yo'qolgan manbalar tarixiy bilimlarimizdagi jiddiy bo'shliqlarga sabab bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, mavjud manbalar orqali ushbu tarix haqida qisman tasavvur hosil qilish imkoniga egamiz. Ushbu tadqiqotimizda Saljuqiylar tarixi bilan bog'liq yo'qolgan, mazmuni haqida ma'lumotga ega bo'lganimiz va tahlil qilganimiz 8 ta tarixiy manba mavjud. Bundan tashqari, faqat nomi ma'lum bo'lib, mazmuni haqida hech qanday ma'lumot bo'lmagan manbalar ham bor. Turli tillarda va turli davrlarda yozilgan bu asarlar Saljuqiylar tarixining turli davrlarini yoritib bergan. Biroq, ularning mazmunidan asosan boshqa manbalardagi iqtiboslar orqali xabardor bo'lsak-da, bu ma'lumotlarning qanchasi bizgacha yetib kelgani va iqtibos vaqtida qanday olingani aniq emas. Bu esa manbalarga tanqidiy yondashish zarurligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning "**Buyuk Saljuqiylar davlatining tashkil topishi va davlat boshqaruv tizimi**" nomli uchinchi bobning birinchi paragrafi "**Buyuk Saljuqiylar davlatining tashkil topishi va kengayishi**"ga bag'ishlangan.

Manbalarda saljuqlarning kelib chiqishi to'g'risida turlicha talqindagi ma'lumotlar bo'lsa-da, ularning ko'pchiligida sulola asoschisi bo'lgan Saljuqning Sirdaryoning quyi havzalarida yashagan o'g'uzlardan kelib chiqqanligi, hamda Saljuqiylarning o'z davlatini qurishida islom dinining o'rni katta bo'lganligi aytiladi.

O'z davrida kechgan siyosiy-ijtimoiy voqealardan ilk saljuqiylar oqilona foydalanganlar. O'sha paytda markaziy hukmron sulolalar Somoniylar va Qoraxoniylar bilan quda-andachilik munosabatlarini o'rnatish orqali saljuqiylar o'z mavqelarini mustahkamlab borganlar. Shuningdek, keyinchalik Saljuqiylar davlatining yuzaga kelishida G'aznaviylar xizmatiga kirgan sulola vakillarining G'aznaviy hukmdorlari, xususan sulton Mas'ud bilan munosabatlari katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Tarixdan ma'lumki, IX asrdan boshlab turkiy qabilalar tarkibidagi o'g'uzlar turli siyosiy – etnik jarayonlar ta'sirida g'arbga siljib, X asr o'rtalarida Sirdaryoni quyi havzasida O'g'uzlar davlatini tuzishga muvaffaq bo'ldilar. Bu davlatning poytaxti Yangikent shahri edi. X asrda O'g'uzlar davlati ichki nizolar va sharqdan qipchoqlar bostirib kelishi tufayli tugadi. O'g'uz qabilalaridan bir qismiga Saljuq boshchilik qilgan. Siyosiy barqarorlik davrida Saljuq farzandlari (To'g'ulbek, Chag'irbek) va qabilasi saljuqiylar degan nom olgan va ular Movarounnahrda, aniqrog'i hozirgi Nurota atroflariga ko'chib o'tganlar. Saljuqiy turklar XI asrning 30-yillarida

Xurosonga ko'chib, tez orada kuchli mavqega ega bo'ldilar va 1038 yili To'g'ulbek boshchiligida Nishopurni egallab oldilar va Saljuqiylar davlatiga asos soldilar.

Saljuqiylarning kuchayib borishiga tarixiy sharoitlar ham xayrixoh bo'ladi. Masalan, ular o'sha paytda kuchayib borayotgan shialik tarafdori bo'lgan isyonchilar, shialik targ'ibotchisi bo'lgan Buvayhiylar qudratini mahv etishda sunniy yo'nalishdagi islom himoyachilari sifatida muhim rol o'ynaganlar. Shunday bo'lsa-da, saljuqlar o'z davlatining qudrati yuksalishi yo'lida g'ayridin zimmiylar bilan ham iliq munosabatlarni o'rnatganlar. Jumladan, manbalarda Malikshoh davrida armanlarning "tinch va xotirjamlikda yashab, hayotlari gullab-yashnaganligi" to'g'risida ko'plab ma'lumotlarni uchratish mumkin. Eng qiziq jihati, ushbu ma'lumotlar asosan vziantiyalik va arman mualliflarining o'zlari tomonidan keltirilgan.

Saljuqiylar davlatining keyingi davrlarda kuchayib borishida sulton Alp Arslon va sulton Malikshoh hukmronlik davri alohida ahamiyat kasb etadi. Malikshoh davrida Saljuqiylar davlati hududi Kichik Osiyodan G'arbiy Xitoy chegaralarigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan.

Saljuqiylar davlatining muvaffaqiyatida nafaqat hukmdorlarning kuchli harbiy mahorati, balki oqil vazirlar faoliyati ham katta o'rin tutadi. Xususan, Malikshohning vaziri Nizomulmulk tomonidan taklif etilgan va bevosita u rahbarlik qilgan davlat ishlari, ijtimoiy-madaniy sohadagi bir qator islohotlar ham Saljuqiylar davlatining muvaffaqiyatida muhim ahamiyatga ega.

Saljuqiylar davlatining tashkil topishiga umumiy tarixiy-nazariy baho beradigan bo'lsak, Saljuqiylar davlatining tashkil topishi turkiy qabilalarning siyosiy konsolidatsiyasi, harbiy zafarlar va islomiy legitimlashuv jarayonining uyg'un natijasi sifatida baholanadi. Uning davlat boshqaruvi tizimi esa turkiy va islomiy an'analar sintezi sifatida tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, keyingi asrlarda turkiy-musulmon davlatchiligi uchun namuna bo'lib xizmat qildi.

**"Saljuqiylar davlatining siyosiy tizimi"** nomli ikkinchi paragrafda davlat boshqaruvi tizimi, asosiy mansablar va devonlar faoliyatining o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Alp Arslon va Malikshohlarning vaziri bo'lgan Nizomulmulk Saljuqiylar davlat boshqaruvi tizimini o'z zamonasida eng mukammal deb aytgan. Bu davlatning boshlig'i sulton hisoblangan va uning hukmronligi o'sha zamon mafkurasi tili bilan aytganda, Alloh tomonidan berilgan bo'lib, vakolatlari cheklanmagan edi. Hukmron sulola vakillari o'z hokimiyatlarini qonuniylashtirish uchun legitimatsiyaning turli uslublaridan foydalanganlar. Bu yerda ularga hokimiyatni (taxtni) "xudo bergani", "taqdir ekani", "baxt qushi uning/ularning boshiga qo'ngani" kabi legitimatsiyaning ilohiyashtirish yo'llari orqali o'z hukmronliklariga qonuniy tus berishga uringanlar.

Davlatda ikkinchi oliy mansabdor shaxs vazir bo'lib, uning ish joyi Ulug' devon (Devoni kabir) bo'lgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sulton harami va saroyida hojiblar ham eng yuqori amaldorlardan sanalgan. Ular sulton mahram/soqchilarining boshliqlari sifatida hukmdor va uning yaqinlarining himoyasi kabi majburiyatni bajargan. Devonda quyidagicha kichik devonlar (devoni sag'ir): devoni tug'ro va insho, devoni istifo (yoki devoni zimam va istifo), devoni ishraf va mamolik, devoni arz faoliyat olib borgan. Sulton saroyida turli darajadagi amal va mansablar qatorida

vazir(lar), amir, amiral-umaro, malik, malik al-umaro, hojib, hojibi xos, amiri hojib, vakildor, munshiy, tashtdor, xosa, isfahsolor, mustavfiy, muhrdor, jondor, otabek, rikobdor, hujjatnavis, amiri a'lam (amiri dod), turli xodim va nadimlar yana o'nlab boshqa amallar (xizmat) bo'lgani manbalarda aks etgan.

Saljuqiylarning siyosiy tizimida vazirlarning o'rni katta bo'lgan. Ular saljuqiy hukmdorlarning abbosiy xalifalaridan dunyoviy hokimiyatni tortib olish yo'lidagi kurashida katta o'rin tutganlar. Xalifalar tayinlagan vazir bilan birgalikda asosan saljuqiy hukmdorlarning o'zlari tomonidan tayinlangan vazirlar ham faoliyat ko'rsatganlar. Xalifalar ko'proq diniy vazifani bajargan "rais"larning eng katta ta'sirga ega bo'lganlari "rais ar-ruaso" ("raislar raisi")larni vazir lavozimiga qo'ygan bo'lsalar, Saljuqiylar ko'proq o'zlariga yaqin bo'lgan "hojib" lavozimida bo'lgan insonlarni vazir lavozimiga tayinlaganlar. Hojiblar raislardan farqli tarzda ozod bo'lmagan mamluklardan, hattoki g'ayridinlardan bo'lishlari ham mumkin bo'lgan.

Eron va G'arbiy Osiyodagi Saljuqiylar davlatida paydo bo'lgan eng yuqori saroy mansabi otabek/atobak bo'lib, muhim vazifa va mansablardan bo'lgan. Uning ma'nosi hukmdor farzandining murabbiysi, unga otaliq qilgan bek/amir demakdir. Saljuqiylar davlatida bu unvon birinchi bo'lib 465 hijriy yili Malikshoh ibn Alp Arslon vaziri Nizomulmulkka berilgan. Otabek barcha amirlardan yuqori mansab sanalgan. Keyin bu unvon harbiy ma'no tus olib, yosh amirlarni murabbiysiga nisbatan ham ishlatiladigan bo'ladi. Otabek mashhur harbiylar orasidan tanlab olinib, uning vazifasi merosga o'tadigan bo'ldi. Ularning ba'zilar valiahd yoki sultonning o'g'illariga ta'sir o'tkazib taxt va toj talashlarga ham aralashganlar. Keyinchalik ba'zi sulton zodalar qoshida bo'lgan otabeklar (Mavsil, Ozarboyjon, Fors, Kirmon va b.) kuchayib ketib, mustaqil sulolalarga asos soldilar.

Umuman olganda Saljuqiylar davridagi unvon va amallarni saroy, diniy va qozixona, harbiy va ma'muriy sohalarga bo'lish mumkin. Ularning daraja va martabasi amal egasining sultonga yaqinligi va sadoqati bilan belgilangan.

Saljuqiylar siyosiy tizimiga umumiy tarixiy-nazariy baho beradigan bo'lsak, Saljuqiylar davlat boshqaruv tizimi turkiy an'analarni islomiy siyosiy-huquqiy meros bilan uyg'unlashtirish orqali yangi davlatchilik modelini yaratdi. Ular turkiy siyosiy an'analarga qonuniy legitimlik, markazlashgan devon tizimi va takomillashgan iqto institutini olib kirdi. Shu bilan birga, islom olamida sunniylik himoyachisi, xalifalikning siyosiy tayanchi va madaniy-ma'rifiy tiklanishning bosh islohotchisi sifatida tarixiy o'rnini mustahkamladi.

**"Saljuqiylar davlatida qo'shin va harb ishi"** nomli paragrafda harbiy boshqaruv tizimi tahlil etilgan.

Saljuqiylar tarixining ilk davrida, ya'ni ularning Xurosondagi davlati tashkil topmasdan avval ularning harbiy tashkilotlari asosan yoy, qilich va nayzalar bilan qurollangan yengil otlq askarlardan iborat bo'lgan. Ularning bu qurollari o'zining mayda o'lchami hamda yengil bo'lganligi bilan Yaqin va O'rta Sharq davlatlarining qo'shinlaridan farq qilgan. Saljuqiylarning nayzalari kaltaroq, foydalanishda yengil va ulay bo'lib, ularning qalqonlari ham ancha yengil bo'lgan. Biroq shunday kamchiliklar bilan birga bu qurol-aslahaning o'ziga yarasha ijobiy tomonlari ham bo'lgan. Ularning ijobiy jihati sifatida foydalanishga qulayligi hamda yengilligi

sababli olib yurish va jang paytida manyovr qilishda qulaylik tug'dirganligini ko'rsatish mumkin.

Saljuqiylarning harbiy qo'shini kuchli jihatlarga ham ega bo'lib, bu ularning G'aznaviylarni mag'lub etishlari va Xurosonni bosib olishlarida ancha qo'l kelgan. Saljuqiylarning harbiy tuzilmalari, birinchidan, talofot ko'rganida yoki kamayib ketganida Xuroson hududlarida ko'chib yurib mahalliy aholini talon-taroj qilayotgan o'g'uz otlilar hisobidan tez to'ldiradigan xususiyatga ega edi. Bu qabilalar kerak bo'lgan vaqtda tez Saljuqiylar tug'i ostida saf tortishga tayyor bo'lgan. Ikkinchidan, Saljuqiylar qo'shini G'aznaviylar armiyasiga qaraganda ancha mahoratli bo'lgan va harbiy manyovrlarni tez bajargan. Bundan tashqari, Saljuqiylar o'zlarining axloqiy-psixologik jihatlari bilan G'aznaviylardan ustun turganlar. Ba'zi qonli muhorabalarda Saljuqiylar metin bardoshli, bardam va g'ayratli bo'lgan bo'lsalar, G'aznaviylar sarbozlarining ruhi tez singan va ular charchab qolganlar. Bu fikrlar sulton Mas'ud vaziri nomidan Abulfazl Bayhaqiyl asarida keltirilgan<sup>24</sup>.

Xurosonda Saljuqiylar davlati tashkil topganidan so'ng ularning harbiy tashkilotida ham tub o'zgarishlar yuzaga keladi. Endi ularning qo'shinlari asosini G'aznaviylar lashkariga o'xshab maosh olib xizmat qiladigan doimiy qo'shin (g'ulomlar) tashkil etadigan bo'lgan. Malikshoh davrida Saljuqiylarda ko'ngillilar va doimiy qo'shin bilan birga yana otliq kavaleriya ham paydo bo'ladi. Ularni iqto egalari xizmatga jalb etib, qurol bilan ta'minlashlari kerak bo'lgan. Qurolli kuchlarni shakllantirish va ularning ta'minotini yo'lga qo'yish ishlarida sulton Malikshoh iqto tizimidan keng foydalangan. Shunday qilib, Buyuk saljuqiylarning harbiy tashkiloti tarkibi uch qismdan, ya'ni doimiy muntazam qo'shin (g'ulomlar), iqto egalari tuzgan otliq lashkar hamda tobe' davlatlar hukmdorlarining qo'shinlaridan iborat edi.

Nizomulmulk ma'lumotiga qaraganda, Buyuk saljuqiylar davlatining rivojlangan davrida ularning qo'shini askarlari soni 400 ming nafarga yetgan. Biroq, Malikshoh hukmronligining oxirgi yillarida ularning soni 70 minggacha kamayib ketgan. Aytish lozimki, Saljuqiylar qo'shinining boshqa Sharq davlatlaridagi kabi aniq belgilab qo'yilgan tashkiliy tuzilmasi bo'lmagan. Manbalarning ma'lumoti asosida aniqlash mumkinki, uning boshlang'ich tashkiliy birligi bitta chodir (o'tov, visoq), ya'ni unga sig'adigan odamlar soniga teng bo'lgan. Chodirning turli hajm va o'lchovda ekanini hisobga olsak, uning soni uch nafardan o'n nafargacha bo'lishi mumkin.

Kichik Osiyodagi Saljuqiylar davlati esa, Yaqin va O'rta Sharqdagi eng mukammal va samarali harbiy tashkilotga ega edi. Bu tashkilot Buyuk Saljuqiylar armiyasi tamoyillari asosiga qurilgan. Ya'ni, quruqlik qo'shinlari ikkita asosiy tarkibiy qismdan iborat bo'lgan: birinchisi poytaxtda va unga yaqin bo'lgan hududlarda joylashgan muntazam professional armiya; ikkinchisi tinchlik davrida mamlakat bo'ylab tarqatib yuboriladigan nomuntazam armiya.

Muntazam professional armiya harbiy asir va qullardan tashkil topgan bo'lib, ular uzoq muddatli harbiy tayyorgarlikdan so'ng turk tili va urf-odatlarini yaxshi o'zlashtirib, professional jangchilarga aylangan askarlardan shakllantirilgan.

<sup>24</sup> Sibt ibn al-Cevzi. Mir'atu'l-zeman fi Tarihi'l-ayan // Islom kaynaklarına göre Malazgirt savaşı / Metinler ve çeviriler Faruk Sümer ve Ali Sevim. – Ankara, 1971. – S. 35.

Professional armiya piyoda va otliq qo'shinlardan iborat edi. Ular sulton qo'shinlari hisoblanib, harbiy yurishlar davrida eng murakkab topshiriqlar shu qo'shinga topshirilgan. Muntazam professional qo'shinning soni 10 ming nafargacha bo'lgan.

Nomuntazam armiya iqto' egalari hisobidan shakllantirilgan bo'lib, faqat otliq qo'shından iborat bo'lgan. Bu qo'shinlarga sulton tomonidan tayinlangan viloyat hokimlari-suboshilar qo'mondonlik qilgan. Nomuntazam armiya askarlari soni 70-80 minggacha yetgan.

Quruqlikdagi janglarni olib borishda qo'shin belgilangan harbiy tartibga muvofiq ish ko'rgan. Uning asosiy elementlari avangard, markaz, o'ng va so'l qanotlar hamda ortdagi himoya qo'shini hisoblangan. Shuningdek, qo'shinda razvedka bo'linmasi ham bo'lib, harbiy amaliyotni amalga oshirishda yozma ravishda sultonga keltirilgan razvedka ma'lumotlari asosida qaror qabul qilingan<sup>25</sup>.

O'rta yer va Qora dengiz sohillaridagi portlar bosib olingandan so'ng, Saljuqiylarda harbiy flot vujudga keldi. Lekin u Yevropa davlatlari flotiga tenglasha olmas edi. Biroq, Saljuqiylar floti bosib olingan qal'alarni dengizdan himoya qilishda samarali foydalanilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Saljuqiylar davlatining vujudga kelishi, uning hududlarining kengayib borishi va yuksalishida ushbu davlatda yo'lga qo'yilgan harbiy ish va qo'shin tuzilmasi katta ahamiyat kasb etgan. Saljuqiylar davlati harbiy tizimida Markaziy Osiyo turkiy harbiy an'analari katta o'rin tutgan. Shunday bo'lsa-da, Buyuk Saljuqiylar davlati gurkiragan davrdan boshlab, arab-musulmon hamda eron harbiy madaniyati ham Saljuqiylar qo'shini tuzilishiga, jang olib borish san'ati va mansablar ierarxiyasiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Saljuqiylar davlatidagi qo'shin va harb ishiga umumiy tarixiy-nazariy baho beradigan bo'lsak, Saljuqiylar harbiy boshqaruv tizimi turkiy an'anaviy otliq urug' qo'shinlari bilan islomiy g'ulomlar va byurokratik tizimni uyg'unlashtirdi. Ular joriy etgan iqto instituti qo'shinning barqaror manbaiga aylandi, markazlashgan harbiy boshqaruv esa davlat qudratini mustahkamladi. Shu orqali Saljuqiylar islom olamining harbiy va siyosiy himoyachisiga aylanib, turkiy va islomiy harbiy madaniyat sintezini yaratdilar.

## XULOSA

Mavzuning o'rganilishi va tahlili quyidagi xulosalarni olishga imkon beradi:

1. Saljuqiylar davlati tarixini o'rganishda arab va fors tilidagi yozma manbalar birlamchi manba sifatida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu manbalar bevosita Saljuqiylarga bag'ishlangan asarlar (Sadridin al-Husayniy, Ibn al-Asir, Sam'oniyning asarlari va boshqalar) hamda boshqa tarixiy kontekstda saljuqiylarga oid ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan asarlardan iborat bo'lib, ular siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy hayotning turli qirralarini yoritib bergan. Ayniqsa, "Axbor ad-davlat as-saljuqiyya", "al-Komil fi-t-tarix", "Kitob al-ansob", "Siyosatnoma" kabi asarlar mazkur davr tarixini tiklashda asosiy manbalardan hisoblanadi.

<sup>25</sup> Ibn Bibi (el-Hüseyn b. Muhammed b. Ali el-Ca'feri er-Rugadi). El Evamirü'l-Ala'ıye Fi'l-Umuri'l-Ala'ıye (Seiçuk-name) / Çeviren Hazırlayan Prof. Dr. Mürsel Öztürk. – Cilt I. – Ankara, 1996. – S. 205.

2. Ushbu manbalar Saljuqiylar davrining yirik siyosiy voqealari bilan birga, madaniy-ma'rifiy muhit, ilmiy maktablar, turkiy qabilalar hayoti va ularning ijtimoiy-siyosiy rolini ham yoritib beradi. Shuningdek, ayrim mualliflarning tarafdashligi, hukmdorlarni madh etish an'anasi yoki ma'lumotlarning fragmentarligi tadqiqotchi tomonidan tanqidiy yondashuvni talab qiladi. Biroq mavjud yozma manbalar o'z davri uchun ishonchli va qimmatli bo'lib, ular Saljuqiylar davlati tarixshunosligining tayanchini tashkil etadi.

3. Saljuqiylar tarixini o'rganishda vizantiya, arman, suryoniy, gurjiy va xitoy manbalari musulmon manbalarini to'ldiruvchi muhim yozma dalillar hisoblanadi. Ular Saljuqiylarning siyosiy faoliyati, hududiy kengayishi, Vizantiya va Kichik Osiyo bilan aloqalari, shuningdek, Armaniston, Gruziya va Xitoy bilan savdo-diplomatik munosabatlari haqida bevosita va qimmatli ma'lumot beradi. Bu manbalar Saljuqiylar tarixi bo'yicha qiyosiy tadqiqot olib borish imkonini yaratadi.

4. Nomusulmon mualliflar asarlarida Saljuqiylar ko'pincha o'z davrining siyosiy raqiblari yoki ittifoqchilari sifatida tasvirlanadi. Shu bois ularning matnlarida milliy va diniy tarafdashlik seziladi. Biroq, shunga qaramay, mazkur manbalar musulmon tarixchilarida uchramaydigan ayrim tafsilotlar – masalan, imperator saroyidagi muhit, salib yurishlaridagi bevosita ishtirok, yoki Saljuqiylarning mahalliy xalqlar bilan aloqalari haqida qo'shimcha dalillar beradi. Shu sababli bu manbalarni tanqidiy tahlil qilish Saljuqiylar tarixshunosligida alohida ilmiy ahamiyatga ega.

5. Buyuk Saljuqiylar tarixiga oid yo'qolgan manbalar, mavjud manbalar bilan bir qatorda, tarixshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular tarixiy voqealarni yanada to'liq yoritishga yordam beradigan muhim ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan. Bu asarlarning yo'qolishi natijasida biz Saljuqiylar davriga oid ko'plab voqealar, siyosiy jarayonlar, madaniy hayot tafsilotlaridan bexabar qolamiz. Shunga qaramay, iqtiboslar va boshqa tarixchilarning asarlaridagi havolalar orqali yo'qolgan manbalar funksional tarzda qayta tiklanishi mumkin. Demak, yo'qolgan manbalarni o'rganish nafaqat tarixiy voqealarni aniqlash, balki ilmiy tafakkur doirasini kengaytirish imkonini beradi.

6. Yo'qolgan manbalarni funksional rekonstruksiya qilish metodologiyasi Saljuqiylar tarixini o'rganishda qiyosiy-tahliliy yondashuvni shakllantiradi. Bu yondashuv orqali nafaqat mavjud matnlarning o'zaro bog'liqligi, balki mualliflarning tarafdashlik darajasi, siyosiy va diniy motivlari ham ochib beriladi. Shunday qilib, bu metod nafaqat Saljuqiylar tarixiga, balki umumiy manbashunoslik nazariyasiga ham metodologik yangilik olib kiradi. Yo'qolgan manbalarning funksional rekonstruksiyasi amaliy jihatdan Saljuqiylar davriga oid tarixiy voqealarni qayta tiklash, tarixiy faktlarning uzluksiz zanjirini yaratish va ilmiy adabiyotlarda mavjud bo'shliqlarni to'ldirish imkonini beradi. Bu yondashuv natijasida Saljuqiylar davlati siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti haqidagi bilimlarimiz boyiydi va yangi tadqiqotlarga asos yaratiladi.

7. Turkiya Saljuqiylari davri bilan bog'liq yozilgan ko'plab tarixiy manbalar bugungi kunga yetib kelmagan bo'lsa-da, ularning mavjudligi haqidagi ma'lumotlar keyingi mualliflarning asarlari orqali aniqlanmoqda. Xususan, Muhammad ibn G'oziy al-Malatyaviy, Amir Ahmad Koni'iy Tusiy va Hoja Dehhoniy singari mualliflarning "Murshid u'l-Kuttab", o'ttiz jildlik "Saljuqnoma" va boshqa asarlari

tarixiy mazmuni jihatidan katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ularning yo'qolishi Saljuqiylar tarixini o'rganishda katta bo'shliq tug'dirgan bo'lsa-da, iqtiboslar va ishoralar orqali mazkur asarlarning mazmuni haqida qisman tasavvur qilish imkoniyati mavjud. Shu bois, bu manbalar yo'qolgan bo'lsa-da, ularni ilmiy rekonstruksiya qilish orqali Saljuqiylar tarixiga oid muhim bilimlarni tiklash mumkin.

8. Saljuqiylar davrida yozilgan asarlarning yo'qolish sabablari ko'p qirrali bo'lib, ularga Mo'g'ullar istilosi, Salib yurishlari, tabiiy ofatlar, kutubxonalar vayron qilinishi va siyosiy beqarorliklar sabab bo'lgan. Biroq manbalar ustida olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ayrim asarlar boshqa mualliflarning kitoblarida saqlanib qolgan iqtiboslar orqali bilvosita yashab kelmoqda. Demak, Turkiya Saljuqiylari tarixi faqat saqlanib qolgan manbalar emas, balki yo'qolgan manbalarni ilmiy tahlil qilish orqali ham tiklanadi. Bu yo'nalishda olib boriladigan chuqur tadqiqotlar Saljuqiylarning siyosiy, madaniy va ijtimoiy hayoti haqida yanada kengroq va mukammal tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

9. Buyuk Saljuqiylar davlatining paydo bo'lishi turkiy qavmlar tarixida sifat jihatidan yangi bosqichni belgilab berdi. Saljuq ibn Taqoq va uning avlodlari ibtidoiy davrdanoq siyosiy vaziyatni chuqur tahlil qilib, mintaqa hukmron sulolalari – Somoniylar va Qoraxoniylar o'rtasidagi raqobatdan foydalanish orqali o'z mavqegini kuchaytirdi. Bu jarayonda ularning islom dinini erta qabul qilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki islomiy g'oyalar Saljuqiylarning "g'oz" maqomi bilan tanilishiga va musulmon aholining siyosiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatloviga erishishiga xizmat qildi. Shu tariqa, Saljuqiylar avval turkiy qabilalar va mahalliy musulmon aholi o'rtasida qonuniy siyosiy kuch sifatida shakllandi. Ularning davlatlarida islomiy qadriyatlar bilan bir qatorda turkiy an'analar ham o'rin olgani uchun, ular keng xalq ommasiga yaqin va manfaatdor bo'lib ko'rindi. Demak, Saljuqiylar davlatining paydo bo'lishi nafaqat harbiy kuch yoki siyosiy vaziyat samarasi, balki diniy legitimlik va xalq qo'llab-quvvatloviga tayangan murakkab ijtimoiy jarayon edi.

